

О‘ЗБЕК АДАБИЙОТИДА ОБРАЗЛАР ТИЗИМИ

Norsafarova Nilufar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi obrazlar tizimi, ularning turlari va kategoriyalari, uning tor va keng ma‘nolari haqida so‘z yuritiladi. Obrazlarga yuklangan ma‘no-mazmun, mohiyat, vazifalar o‘zbek adabiyotidan O‘lmas Umarbekovning "Qiyomat qarzi" hamda jahon adabiyotidan Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarlari orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: obraz, tizim, o‘zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, ko‘rgazma, vazifa, mazmun, reallik, siymo, timsol, badiiy adabiyot, xususiyat.

IMAGE SYSTEM IN UZBEK LITERATURE

Norsafarova Nilufar

Shahrisabz State Pedagogical Institute,

Uzbek language and literature 2nd stage student

ANNOTATION

This article talks about the system of images in Uzbek literature, their types and categories, and its narrow and broad meanings. The meaning, essence, tasks assigned to the images are revealed through the works of Olmas Umarbekov's "Doomsday Debt" from Uzbek literature and "Love of Life" from world literature by Jack London.

Key words: image, system, Uzbek literature, world literature, exhibition, task, content, reality, image, symbol, fiction, feature.

ОБРАЗНАЯ СИСТЕМА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Норсафарова Нилуфар

Шахрисабзский государственный педагогический институт,

студент 2 курса Узбекского языка и литературы

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о системе образов в узбекской литературе, их видах и категориях, а также о ее узком и широком значениях. Смысл, суть, задачи, возложенные на образы, раскрываются через произведения Олмаса Умарбекова «Долг Судного дня» из узбекской литературы и «Любовь к жизни» Джека Лондона из мировой литературы.

Ключевые слова: образ, система, узбекская литература, мировая литература, выставка, задача, содержание, реальность, образ, символ, вымысел, особенность.

Badiiy adabiyotimizdagi obraz atamasining ma'nosi, quyidagicha:

«Образ» termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tajimada «aks» degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham «obraz» deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, biz «obraz» deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik — badiiy borliqdir [Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti–2004, 63-bet].

Adabiyotning eng muhim unsurlaridan bo'lgan obraz tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Har bir narsaning mazmunini belgilovchi ayni bir asosi bo'ladi. Ana shu jihat uni o'zga narsa-hodisalardan ajratib turadi. Tabiiy fanlar, rus tili, tasviriy san'at, algebra kabi fanlar orasida ba'zi o'xshashlik hamda bog'lanishlar bo'lsa-da, ularning o'rtasida jiddiy tafovutlar ham bor. Tafovutlar esa, avvalo, ularning tuzilishidan kelib chiqadi. Masalan, badiiy adabiyotning o'ziga xos bosh xususiyati badiiylik hisoblanadi. Badiiylik esa, avvalo, atrofdagi hodisalarni jonlashtirish, ularda odamga mos jihatlarni ko'rishdir. Badiiylik yozuvchi o'z fikrini kitobxonga go'yoki o'zi his qilgan, idrok etgan darajada anglata olishdir. Badiiylikning eng yuqori pog'onasi obrazlarda namoyon bo'ladi. Ingliz adabiyotshunosi Iglton har qanday asar emas, hayot voqeligi badiiy obraz vositasida gavdalantirilgan asargina badiiy asar sanaladi, deydi.

Obraz hayot voqeligining ko'rinishi bo'lib, hodisalarning aksi emas, balki ma'lum bir ideal asosida qayta ishlangan ko'rinish hisoblanadi va o'zida umumiylik va konkretlikni mujassamlaydi. Ko'plab odamlarning ahvoli, taqdirini shakllantiradi. San'at va adabiyotdagi obraz ilm-fandagi obrazdan ko'ra ta'sirchan bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri esa unda voqea-hodisalar ijodkorning aql-tafakkuri, qalb quvvati bilan boyitilganidadir. Obraz so'zining o'zagi "raz" (chiziq) bo'lib, undan "razit" (chizmoq, qo'nmoq, o'ynamoq), undan "obrazit" (chizib, o'yib shakl bermoq, yasamoq) paydo bo'lgan. Ana shu "obrazit" so'zidan "obraz" atamasi vujudga kelgan. Bu so'z "umuman olingan tasvir" ma'nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan badiiy hodisa sanaladi. Har bir

obraz o'zida ma'lum bir ma'no-mazmun tashiydi. Buning yorqin misoli sifatida O'lmas Umarbekovning "Qiyomat qarz" asarini keltirib o'tishimiz mumkin: *Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun go'ya niyatiga yetadigandek kayfi chog' edi, lekin o'rtog'ining gapi bilan ko'ngli buzildi. Bir: "Sening nima ishing bor? Choyingni sotsang-chi!" – demoqchi ham bo'ldi, tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. O'g'lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o'n yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog'ida ado bo'lay dedi. O'zi esa, cho'p bo'lib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi–choyxona* [Qozoqboy Yo'ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshibekov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darlik-majmua. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent–2017, 85-bet]. Asar syujetidagi voqealar rivoji bilan tanishgan kitobxon muallif Sarsonboy ota obraziga nega aynan Sarsonboy deb nom qo'yganini anglab yetadi. Chunki bu obraz voqealar rivoji jarayonida o'ziga Haydarali tomonidan omonat qilib tashlab ketilgan ikkita qo'yni qaytarish uchun sarson-sargardon bo'ladi. Haydaralining kelishini yigirma yil kutadi, hatto uni izlab topish uchun birorta bozordan qolmay har bir bozorga boradi. O'g'lining do'sti Haydarali tomonidan omonat qilib tashlab ketilgan ikkita qo'y qirqta bo'lib ketsa ham ularni boqib, asrab yuradi. Mana, obraz o'zida ifodalagan mazmun-mohiyat. Bularning barchasini, ya'ni obrazning o'zida ifodalagan mazmun-mohiyatni biz jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarida ham ko'rishimiz mumkin: *Odam juda charchaganligidan madori qurib qoqildi va orqasidagi yuki bilan yiqildi-da, yuzlari shilinib ketdi. U anchagina qimirlamay yotdi, keyin yonboshga ag'darilib, soatini burab qo'ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.*

Odam endi hayot uchun kurashmay qo'ydi. Undagi hayotning o'zi o'lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g'alati xayollar, shirin tushlar bilan to'la edi [Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Birinchi nashr. 2-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent –2017, 157-160-betlar]

Yozuvchining "Hayotga muhabbat" hikoyasida insonni tabiat kuchlari bilan yonma-yon, unga basma-bas tarzda tasvirlaydi. Insonning kurashuvchanligi va umidiga urg'u beradi. Hikoya qahramoni Odamning hayotga bo'lgan muhabbati o'lim ustidan g'alaba qozonadi. Bundan kelib chiqsak, bizda bir savol tug'iladi. Nega yozuvchi hikoyasining qahramoniga nom qo'ymay Odam deb ataydi?! Axir, unga o'ziga yoqqan qandaydir nom qo'ysa ham bo'lardi-ku... Chunki odam obrazi o'zida juda katta ma'no tashiydi. Yozuvchi bu obraz orqali butun insoniyatga, butun jamiyatga ishora qiladi. Odam obrazi zamirida butun insoniyat obrazi yotganligiga urg'u beradi. Ko'rinib turganidek, o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham,

umuman, barcha badiiy asarlarda obrazlar muhim ahamiyat kasb etib, har bir obraz mazmun nuqtai nazaridan nomlanadi. Asardagi ishtiroki, uning bajarib kelayotgan funksiyasidan kelib chiqib ma'lum bir nom bilan ataladi. Diqqat bilan o'qigan kitobxon muallif nega o'z asari uchun bunday obrazlar tanlaganining mohiyatini, albatta, anglab yetadi.

Obrazning keng hamda tor ma'nolari mavjud. Agar faqatgina badiiy adabiyotda aks etgan inson, bittagina shaxs obrazini misol qilib keltiradigan bo'lsak, u tor ma'nodagi obraz sanaladi. Biroq yozuvchi ijodkorning fikr-mulohazalari, ichki kechinmalari, hissiyot va tuyg'ulari keltirilgan hayot manzarasini, jamiyat hayotini olsak, u keng ma'nodagi obraz bo'ladi.

Bundan tashqari, o'z navbatida obrazlar bosh va epizodik obrazlarga ajratiladi. Asarning boshidan oxirigacha ishtirok etgan, ko'plab o'rinlarida kengroq vazifa bajargan obrazlar bosh obrazlar sanaladi. Masalan, unga "Qiyomat qarz" hikoyasidagi *Sarsonboy ota*, *Madumar aka* kabi obrazlar, "Hayotga muhabbat" hikoyasidagi esa Odam, bo'ri obrazlarni kiritishimiz mumkin.

Epizodik obrazlar esa asar syujetining ma'lum bir qismidagina qatnashib, keyinchalik tushib qoladigan obrazlardir.

Ba'zi ilmiy adabiyotlarda obraz tushunchasi xarakter atamasi bilan ham yuritiladi. *Badiiy asarda ozmi-ko'pmi tafsilot bilan tasvir etilgan personaj obraz yoki xarakter deb ataladi. Xarakter (obraz) –insonning tipiklashtirilgan va individuallashtirilgan tasviri. Xarakter kishilarning ma'lum toifasiga xos xususiyatlarni ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga yoki hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi. Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir* [Izzat Sultonov. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi. Toshkent–2005, 103-bet].

Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz vokelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi. Badiiy obrazni real obyekt bilan chalkashtirmaslik kerak; u shartlilik, ramziylik xususiyati bilan real voqelikdan farq qiladi va asarning ichki «illyuziyali» olamini tashkil qiladi. Obraz voqelikning oddiy in'ikosi bo'lmay, balki uni umumlashtirib, alohida, o'tkinchi, tasodifiy hodisaning eng mohiyatli, o'zgarmas-muqim, adabiy jihatlarini ochib beradi. Mavhum tushunchadan farqli ravishda obraz ko'rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqealarni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzda aks ettiradi.

Xulosa o'rnida aytganda, obraz atamasi badiiy adabiyotning eng muhim va eng mohiyatli tushunchasi bo'lib, jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham obrazlar

nomlanishida juda katta mohiyat yotadi. Obrazlar nima orqali ifodalanishiga ko'ra insonlar obrazi, tabiat fasllari obrazi, hayvonlar obrazi, narsa-predmetlar obrazi kabi bir necha turlarga bo'linib ketadi. Biroq qaysi tur bo'lishidan qat'iy nazar barcha turdagi obrazlar zamirida inson obrazi yotadi, ya'ni har qanday obraz, u fasllar obrazimi, hayvonlar obrazimi, ularning barchasining zamirida inson obrazi yotadi. Adabiyotda ham asosiy mavzu bu inson va uning hayoti, o'tmishi, buguni va kelajagidir. Masalan, bolalar oddiy bir multfilm tomosha qilishganda ham, unda aks etgan hayvonlar obrazi orqali yozuvchi aynan insonlarning turli xildagi ko'rinishlarini bolaning tasavvurida hayvonlar obrazi orqali shakllantirishga harakat qilgan. Hayvonlar obrazi badiiy adabiyotda nima va qanday vazifani bajaradi, deysizmi?! Tasavvur qiling, 3 yoki 4-5 yoshdagi bolalarga hayvonlar obrazi orqali shakllantirilgan lavhalar bo'lmasa, ular badiiy adabiyotga qiziqadimi? Albatta, yo'q! Aynan ularning tasavvurida hayotni, insoniyatni shakllantirish uchun ham bizga badiiy adabiyotimizdagi hayvonlar obrazi, fasllar obrazi asqatadi. Demak, badiiy adabiyotimizni bir daraxt deb oladigan bo'lsak, uning tomiri so'z, novdalari esa aynan biz yuqorida tahlilga tortgan badiiy obrazlardir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Birinchi nashr. 2-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent –2017
2. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti–2004
3. Izzat Sulonov. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi. Toshkent–2005
4. Qozoqboy Yo'ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent–2017
5. <https://www.ziyouz.com/>
6. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/o/obraz/>